

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH  
METODIKASI.****Qodirova Ozoda Hamro qizi***Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi va maqsad, vazifalari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich ta'lim, Boshlang'ich sinfga xos xususiyatlar, Sinf dars tizimi, Boshlang'ich ta'limda aniq fanlarga qo'yiladigan talablar, Aniq fanga oid kompensatsiya, Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishdan maqsad, Tabiiy fanlar kompensatsiya, Matematika faniga oid misollar yechish usullari, Tabiiy fanga oid vazifalarni bajarish.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье рассматриваются методология, цели и задачи преподавания конкретных и естественных наук в начальной школе.*

**Abstract:** *This article discusses the methodology, goals, and objectives of teaching concrete and natural sciences in primary education.*

Boshlang'ich ta'lim – umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zRda Boshlang'ich ta'lim 1–4sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1–4sinflarni o'z ichiga oladi va o'qish 6–7 yoshdan boshlanadi. Bunda ta'lim mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega. O'zRning 1997-yil 29 avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonunida Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga karatilgan. Boshlang'ich ta'lim sinflari uchun o'quv rejasi va dasturlari mavjud. Boshlang'ich ta'lim da o'quv rejasi asosida ona tili, mat., tibbiyot, tarix (tarixiy mavzulardagi matnlar asosida), rus tili, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ona tili darsida xatsavod o'rgatiladi, nutqni o'stirish, o'qish va yozishga o'rgatish yuzasidan maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi, dastur asosida imlo qoidalari va ba'zi grammatik vositalar to'g'risida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Mat. darsida 4 arifmetik amal ichida hisoblash (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish) o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv- bilim faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim terisidagi" qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish uni shaxsga ta'lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida takidlab o'tilgan.

**A'LIMNING SINFLAR DARS TIZIMI** – maktabda o'quv jarayonini tashkil etish tizimi. Unda o'quvchilar yosh xususiyatlari va o'qish muddatlariga ko'ra muayyan sinflarga ajratilib, ta'lim o'quv rejasi va dasturiga muvofiq, asosan, dare shaklida olib boriladi. Ta'limning sinflar dars tizimi individual ta'lim o'rnida vujudga kelib, uning ayrim belgilari qad. maktablarda ham mavjud bo'lgan. 10-a. ga kelib, Arab xalifaligiga qarashli Iroq, Suriya, Misr singari mamlakatlardagi maktablarda amaldagi «imlo» usuli o'rniga «tadris» usuli joriy etilishi har bir

o'quvchi bilan alohida shug'ullanishga asoslangan o'qitish tizimi o'rniga ta'limning muayyan mikdordagi bolalar jamoasi bilan birvarakayiga olib borilishi mo'ljallangan dare shaklini yuzaga keltirdi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan ta'limni amalga oshirishda milliy o'quv dasturining vazifalarini amalga oshirishda matematika fanining inson hayotidagi o'rnini katta. Matematika bu- bolaning hayotidir.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1-6 sinflarda tabiiy fanlarni o'zida jamlagan Tabiiy (SCIENCE) fanlar joriy etildi. Tabiiy (SCIENCE) fanlar ayni vaqtda o'qitib kelinayotgan 1-2-sinfda "Atrofimizdagi olam", 3-4-sinflarda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4ta alohida fanlar, ya'ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinf dan boshlab), kimyo (7- sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi.

Tabiiy (SCIENCE) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o'quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati kengayadi.

"Tabiiy fan - bu dalillarga asoslangan tizimli metodologiyaga rioya qilgan holda tabiiy va ijtimoiy dunyoni bilish va tushunishga intilish hamda shu bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish".

Tabiiy fanlar alohida predmet sifatida o'qitish 1- sinfdan boshlanadi. O'quv materiallari - «Tabiat jismlari», «O'simlik va hayvonot olami», «Sog'ligimizni saqlaymiz» va «Ekologiya» mavzulariga birlashtirilgan. Tabiiy fanlar bo'yicha dastur kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga faqat jonajon tabiat go'zalligi va boyliklarinigina emas, balki respublikamizning tabiatini o'rganishga ham ham imkon beradi. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishda har bir dars mavzuyini bayon qilishga e'tibor beriladi.

Matematika faniga oid misol yechish usullari:

Ayrim ko'paytmalarni hisoblash

1) ikki xonali sonni 11 ga ko'paytirish.

a) agar ikki xonali sonning raqamlari yig'indisi 10dan kichik bo'lsa u holda bu sonning 11ga ko'paytmasi shu son raqamlari orasidagi raqamlar yig'indisini yozishdan hosil bo'lgan singa teng.  $22 \times 11 = 242$ ,  $35 \times 11 = 385$

b) Agar ikki xonali sonning raqamlari yig'indisi 10 ha teng yoki undan katta bo'lsa u holda bu sonning 11ga ko'paytmasi shu sonning o'nlar xonasidagi raqamini bitta orttirish keyin raqamlar yig'indisini 10ortiqni va birlar xonasidagi raqamini yozishdan hosil bo'lgan songa tengdir.  $76 \times 11 = 836$ ;  $46 \times 11 = 506$ ;  $99 \times 11 = 1089$

Misollarni shartini oldin yaxshilab o'qib olishimiz kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toxirov J, Muxammedova G. "Matematika" darslarida innovatsiya; T: TDPU 2012-yil.
2. U.A. Roziqov, N/H. Mamatova Matematika va turmush nomli qo'llanma, T: "Fan" nashriyoti. 2020-yil.

3. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2014-yil.
4. Tolipov O', M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2015-yil.
5. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 1-4.
6. Shuxratovna, A. N. (2024). *RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI DINIY TARKIBIY QISMLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI.* *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 5-8.
7. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 170-175.
8. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILINI O'RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 182-186.
9. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING SHAKLLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 176-181.
10. Zafarovna, Y. I., & Shuxratovna, A. N. (2024). O'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O'RNI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 125-128.
11. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLIISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. *Scientific Impulse*, 2(19), 108-110
12. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 91-98.
13. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Personality development and activity (communication), their management as an educational pedagogical problem. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 81-88.
14. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 91-98.
15. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 91-98.
16. qizi, D. G. B. ., Darxonova Gulmira Burxon qizi, Yakubova Intizor Zafarovna, & Shuxratovna, A. N. . (2024). O'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O'RNI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 125-128. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/501>
17. Isroilova Sevinch Aqilbek qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLIISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. *Scientific*

Impulse, 2(19), 108-110. Retrieved from  
<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15153>

18. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 116-118.

19. Raximboyeva Gulsanam Gulmirza Qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna (2024). SU'NIY INTELLEKT: FOYDALIMI YOKI ZARARLI ?. Science and innovation, 3 (Special Issue 18), 691-693. doi: 10.5281/zenodo.10806277

20. G'ulomjonova, D., & Artikova, N. (2023). BOSHLANG'ICH TALIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 112-117.

21. Shuxratovna, A. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. Scientific Impulse, 1(4), 1592-1594.

22. R.Movlonova N.Rahmonqulova Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma.

23. G.Todjboyeva Z.Shanasirova E. Davletov A.Xo'jayev M. Abdullayeva Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.